

KELISHIK QO'SHIMCHALARINING SEMANTIK MUNOSABATLARI

*Sayfiddinova Dildora Shovkiddin qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Koreys filologiyasi kafedrasи 2-bosqich magistranti
Sayfiddinnovadildora@gmail.com*

ANNOTATSIYA

O'zbek tilidagi kabi koreys tilida ham kelishik kategoriyasi mayuddir. Otning boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va shu ma'noni ifodalovchi shakllar tizimi kelishik kategoriyasi deb yuritiladi. Otning kelishik qo'shimchasini olib o'zgarishi turlanish deyiladi. Kelishik affikslari esa turlovchi affikslardir. Kelishik kategoriyasi o'zi birikkan asosni nutqqa o'tkazuvchi, uni nutqiy jarayonga xoslovchi til birligi hisoblanadi. Kelishik kategoriyasi, asosan, ot so'z turkumiga xosdir. Ushbu maqolada kelishik kategoriyalarining semantik munosabatga kirishishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: semantik munosabat, transpozitsiya, bosh kelishik (주격조사), tushum kelishigi (목적격조사), predikativ kelishigi (서술격조사), qaratqich kelishigi (관형격조사), to'ldiruvchi kelishigi (보격조사), atash kelishigi (호격조사), jo'nalish kelishigi (여격조사), chiqish kelishigi (처격조사), vosita kelishigi (조격조사)

Koreys tilida ham kelishik qo'shimchalari xuddi o'zbek tilidagi kabi belgili va belgisiz qo'llanila olish xususiyatiga ega. Belgili qo'llanilish koreys tilidagi barcha kelishik qo'shimchalariga xos hodisadir. Lekin ularning ayrimlari gapda belgisiz qo'llanilishi ham mumkin. Ba'zi hollarda kelishik qo'shimchalarini gapda tushirib qoldirishimiz ham mumkin. Koreys tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq yettita, holat kelishigi tarkibiga kiruvechi uchta kelishikni qo'shib hisoblaganda to'qqizta kelishik mavjud. Koreys tilida bosh kelishik, tushum kelishigi, qaratqich kelishigi, predikativ kelishigi, to'ldiruvchi kelishigi, atash kelishigi, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigi, vosita kelishigi kabi kelishiklar mavjud.¹ Yuqorida ko'rib o'tganimizdek koreys tilida o'zbek tilida mavjud bo'lмаган atash kelishigi, otga qo'shilib uni ot - kesimga aylantiruvchi predikativ (kesim) kelishigi hamda ot - kesimga qo'shiluvchi to'ldiruvchi kelishiklari mavjud. Bundan tashqari koreys tilida kelishik qo'shimchalarining hurmat shaklini ifodalovchi variantlari ham mavjud. Biroq bunday xususiyat barcha kelishik qo'shimchalariga ham xos emas.

¹ Sh.K.Eshimova Koreys tili kelishiklar tizimi. Samarqand 2019 5-b

Kelishik qo'shimchalari jadvali

Qo'shimchalar turlari (분류)		Shakllari (현태)
Kelishik qo'shimcha- lari (격조사)	Bosh kelishik (주격조사)	-이/가,께서
	Tushum kelishigi (목적격조사)	-을/를
	Predikativ kelishigi (서술격조사)	-이다
	Qaratqich kelishigi (관형격조사)	-의
	To'ldiruvchi kelishigi (보격조사)	-이/가
	Atash kelishigi (호격조사)	-아/야, (이) 여
	Ravish holat kelishigi (부사격 조사)	Jo'nalish kelishigi (여격조사)
	Chiqish kelishigi (처격조사)	-에서 / -에게서 / -한테서
	Vosita kelishigi (조격조사)	으로

Bosh kelishik qo'shimchasi (주격조사) Otga qo'shilib, egani ifodalash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar bosh kelishik qo'shimchalari deb yuritiladi. O'zbek tilida bosh kelishik boshqa kelishiklarga zid holda maxsus ko'rsatkichga ega emas, koreys tilida esa bosh kelishik o'zbek tilidan farqli o'laroq o'z qo'shimchasiga ega. Koreys tilida bosh kelishik so'zga -이/가 qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.² Agar bosh kelishik qo'shimchasi qabul qilayotgan so'z unli harf bilan tugagan bo'lsa, -가 qo'shimchasi qo'shiladi. Agar undosh harf bilan tugagan bo'lsa -이 qo'shimchasi qo'shiladi.

이 가방이 무겁습니다.

Bu sumka og'ir.

Koreys tili va o'zbek tili grammatikasini taqqoslab qaraganda bir qancha tafovutlarni ko'rishimiz mumkin. Koreys tilida ayrim kelishik qoshimchalarining hurmatni ifodalaydigan shakllarini ham mavjud. Ega bilan ifodalangan obektga bo'lgan hurmatni ifodalash uchun bosh kelishik shakllari bo'lgan -이/가 emas, bosh kelishikning yana bir shakli 께서 so'z o'zagiga qo'shiladi. Bunda hurmat

² Eshimova. Sh. K Samarqand- Koreys tili kelishiklar tizimi 2019.12-b

ma’no egaga nisbatan qaratilgan bo‘ladi. Agar gapda ega 께서 qo’shimchasi bilan yasalgan bo‘lsa, fe’lning o‘zagiga hurmat shaklini yasovchi (으)시|qo’shimchasi qo‘shiladi.

예: 부모님께서 고향에 계십니다.

Ota onam qishloqdalar.

선생님께서 지금 편지를 쓰십니다.

O‘qituvchimiz hozir xat yozyaptilar.

Ba’zi gaplarda bosh kelishik qo’shimchasi bilan yasalgan ega gapda ikki martadan ortiqroq qo’llanishi mumkin. Bunday holda koreyscha jumlalarda bosh kelishik qo’shimchasini olgan birinchi ot ega vazifasini bajaradi, ikkinchi ot esa kesim tarkibining qismi hisoblanadi, ya’ni gapda ot-kesim bo’lib keladi. Bunday jumlalarni o’zbek tiliga tarjima qilganimizda, boshqacha holat kuzatiladi. Bosh kelishik qo’shimchasini olgan birinchi ot aniqlovchi vazifasini bajaradi, ikkinchi ot esa ega tarzida tarjima qilinadi.

예: 아파트가 난방이 잘 된다.

Xonaning isitish tarmog‘i yaxshi ishlaydi.

Tushum kelishigi qo’shimchasi (목적격조사) otga qo’shilib, vositasiz to‘ldiruvchini ifodalash uchun ishlatiladi. 을/를 tushum kelishigining Grammatik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Tushum kelishigida kelgan so‘z fe’l anglatgan ish-harakatni bevosita o‘ziga qabul qilgan narsani ifodalaydi. Agar otning o‘zagi unli harf bilan tugagan bo‘lsa, -를 qo’shimchasi ishlatiladi, agar otning o‘zagi undosh harf bilan tugagan bo‘lsa, u holda otdan so‘ng -을 shakli qo’llaniladi.³

예: 어제 오후에는 집에서 남편 생일 음식을 만들었습니다.

Kecha tushdan keyin uyda erimning tug‘ilgan kuniga ovqat tayyorladim.

Kelishik qo’shimchalarining qisqargan shaklining mavjudligi faqatgina o’zbek tiliga xos bo‘lib qolmay, bunday shakllarni koreys tilida ham kuzatishimiz mumkin. Koreys tilida ham ba’zi bir kelishik qo’shimchalarining qisqargan shakli mavjud. Koreys tilida ba’zan tushum kelishigi qo’shimchasi o‘rniga uning qisqargan shakli ㄹishlatiladi.

예: 가: 어제 뭘 했습니까?

나: 집에서 친구들이랑 같이 차를 마시면서 음악을 들었습니다.

A: Kecha nima qildingiz?

B: Uyda do‘sralrim bilan birga choy ichib musiqa tingladik.

Predikativ (kesim) kelishigi qo’shimchasi (사술격조사) 이 otga qo’shilib otni

³ 남기심 “외국인을 위한 한국어” 문법 대한민국, 서울, 커뮤니케이션북스, 2005 .64

kesimga aylantiradi. Bunday hollarda u fe'lga o'xshaydi. Ammo predikativ kelishigi qo'shimchalari gaplarda erkin joylashishi bilan fe'llardan ajralib turadi. Ayrim adabiyotlarda predikativ kelishigi kesim kelishigi deb ham ko'rsatiladi.

예: 제 친구는 화가이다.

Mening do'stim rassom.

Qaratqich kelishigi (관형격조사: 소유격조사) narsaning shu kelishikdagi otdan anglashilgan boshqa narsaga qarashli ekanligini bildiradi. Koreys tilida qaratqich kelishigining asosiy morfologik ko'rsatkichi ۋەhisoblanadi. Qaratqich kelishigi ot so'z turkumiga qo'shilip, ushbu ot, odatda, boshqa bir so'zni o'ziga qaratib keladi va "qaratuvchi" deb ataladi. Qaratilgan so'z esa qaralmish deyiladi.

예: 가: 이 것은 누구의 가방입니까?

나: 이 것은 선생님의 가방입니다.

A: Bu kimning sumkasi?

B: Bu o'qituvchimizning sumkasi.

To'ldiruvchi kelishigi (보격조사) 보ۋەyasovchi qo'shimcha deb ham ataladi. To'ldiruvchi kelishigining qo'shimchalari ئى/گەbosh kelishik qo'shimchalari ئى/گەdan 아니다 va 되다 fe'llari bilan boshqarilganligi bilan farq qiladi. Agar oldingi bo'g'in undosh harf bilan tugagan bo'lsa, ئىqo'shimchasi qo'shiladi, aksincha, unli harf bilan tugagan bo'lsa, گەqo'shimchasi qo'shiladi. Ular o'zbek tiliga "bo'lmoq, emas" tarzida tarjima qilinadi.

예: 가: 이 것은 네 사진입니까?

나: 아니요, 제 사진이 아닙니다.

A: Bu sening rasmimgmi?

B: Yo'q, bu mening rasmim emas.

Atash kelishigi (호격조사) ayrim grammatik adabiyotlarda chaqiruv kelishigi deb ham ataladi. 아/야, 어/여 chaqiruv kelishigining morfologik shakllari hisoblanadi. Koreys tilida biror kishini chaqirganda uning ismi qanday bo'lsa shunday chaqiriladi yoki odamning ismiga chaqiruv kelishigi qo'shimchasini qo'shib chaqiriladi va u tarjima qilinmaydi.

예: 철수야, 어디 가니?

Cholsu, qayerga boryapsan?

Ravish kelishigi (부사 격조사) ba'zan holat kelishigi deb ham ataladi. Ravish kelishigi qo'shimchalari otga qo'shiladi. Hamda holatni bildirib keladi. Ravish kelishigi qo'shimchalari oldidagi ot va kesimga ko'ra ular har xil ma'nolarda ishlatiladi va juda aniq voqeani ifodalaydi. Bu qo'shimchalar otga qo'shilip, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish va vosita manolarini beradi. Bosh va tushim

kelishiklari qo'shimchalariga nisbatan, ravish kelishigi qo'shimchalari gapda deyarli tushirib qoldirilmaydi va qisqarmaydi. Ravish kelishigini o'zi anglatgan ma'nolariga ko'ra bir nechta turlarga bo'lib ko'rsatishimiz mumkin. Jo'nalish kelishigining bir necha shakllari mavjud. Odam va hayvonlarga nisbatan **에**게 va **한테** shakllari qo'llaniladi. Qolgan barcha hollarda **에**ishlatiladi.

나는 한국에 유학하러 가고 싶어요.

Men Koreyaga o'qish uchun borishni xoxlayman.

께 qo'shimchasining **한테** va **에**게 qo'shimchalariga nisbatan hurmat ma'nosi kuchli, shu sababli ham bu shakl o'zidan katta yoshdagilarga nisbatan qollaniladi.

예: 선생님께 안부를 전해 주세요.

O'qituvchimizga salom aytib qo'ying.

O'rın va chiqish kelishigi (처격조사) **에** / **에서** / **에게(서)** / **한테(서)** **에** payt kelishigi (시간이 부가격조사) vaqt ma'nosidan tashqari, o'rın ma'nosini (처소의 부사격조사) ham beradi. Bu qo'shimcha ba'zan **에서** qo'shimchasi bilan sinonim bo'lib keladi.

제가 산 책이 어디에 있는지 압니까?

Men sotib olgan kitobni qayerdaligini bilasizmi?

Vosita kelishigi (조격조사) ba'zan vosita kelishigi qo'shimchasi o'rinni ifodalaydigan qo'shimcha deb ham ataladi. Vosita kelishigining Grammatik ko'rsatkichlari -로va -으로 qo'shimchalari hisoblanadi. Vosita kelishigining asosiy ma'nosi qandaydir harakatning vositasi yoki usulini ko'rsatishdir. Agar ot unli harf bilan tugagan bo'lsa, -로 qo'shimchasi qo'shiladi. Ot -은 dan boshqa undosh harflar bilan tugagan bo'lsa -으로 qo'shimchasi qo'shiladi.

예: 고향에 버스로 갑니다.

Qishloqqa avtobusda boraman.

Kelishik qo'shimchalari transpozitsiyasi. Kelishik affikslari otning boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ta'minlovchi eng faol kategoriyalardan biri hisoblanadi. Shu bois kelishik kategoriyasiga mansub bo'lgan affikslar nutqiy jarayonda o'zaro hamda boshqa turli birliklar bilan ma'nodoshlik munosabatlariga ham ega bo'ladi. Ushbu bobda biz koreys tilida kelishik qo'shimchalarining bir-birini o'rnida qo'llanilishi, ya'ni kelishiklar sinonimiysi va boshqa birliklarning kelishik qo'shimchalari o'rnida kelishini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilida ayrim hollarda kelishik qo'shimchalari bir-birining o'rnida qo'llanilib kelishi mumkin. Ular o'zaro sinonimlik xususiyatiga ega.

M: Bolalardan biri - bolalarning biri.

Bu yerda qaratqich kelishigi qo'shimchasi -ning va chiqish kelishigi qo'shimchasi -dan bir-biri bilan sinonim bo'lib kelyapti. Biz shu kabi ayrim

jumlalarni hosil qilishda har ikkala kelishik qo'shimchasini qo'llasak, ham xato hisoblanmaydi.

Otni mindim - otga mindim.

Bu jumlalarda esa tushum kelishigi qo'shimchasi -ni va jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga o'zaro sinonim bo'lib kelyapti. Koreys tilida ham xuddi o'zbek tilidagi kabi ayrim kelishik qo'shimchalari bir-biri bilan sinonim bo'lib kela oladi. Kelishik qo'shimchalari ayrim so'zlar tarkibida qotib qolgan holda o'z ma'nosini yo'qotadi.

예: 친구한테서 취미를 물어 보세요.

Do'stingizdan qiziqishini so'rab ko'ring.

친구의 취미를 물어 보세요.

Do'stingizning qiziqishini so'rab ko'ring.

Ushbu jumlalarda chiqish kelishigi (처격조사) qo'shimchasi 한테서 va qaratqich kelishigi (관형격조사) qo'shimchasi 의 bir- biri bilan sinonim bo'lib kelyapti. Lekin koreys tilida ba'zi mustasno holatlarni ham kuzatishimiz mumkin.

예: 친구에게 취미를 물어 보세요.

Ushbu gap o'zbek tiliga "Do'stingizga qiziqishini so'rab ko'ring" tarzida tarjima qilinadi. Bu gap o'zbek tili grammatik qoidalariga mutlaqo mos kelmaydi. Ya'ni bu yerda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'llab bo'lmaydi. Koreys tilida esa bunday holatni kuzatishimiz mumkin. Bu xato hisoblanmaydi.

아파트의 난방이 잘 된다.

Xonaning isitish tizimi yaxshi ishlayapti.

Bu gapni koreys tilida quyidagicha ifodalashimiz ham mumkin.

아파트가 난방이 잘 된다.

Bu yerda qaratqich kelishigi qo'shimchasi -의 o'rnida bosh kelishik qo'shimchasi -가 qo'llanilmoqda.

학교에 가고 있어요.

Maktabga boryapman.

학교 so'ziga qo'shilib kelgan jo'nalish kelishigi (여격조사) qo'shimchasi 에 o'rnida vosita kelishigi (조격조사) qo'shimchasi -로 ni qo'llasak ham xato hisoblanmaydi.

학교로 가고 있어요.

Kelishik qo'shimchalari ayrim so'zlar tarkibida qotib qolgan holda o'z ma'nosini yo'qotadi hamda ba'zi kelishik qo'shimchalari o'rnida qo'llanilib kelishi mumkin. Bundan tashqari koreys tilida ayrim so'zlar qoidadan mustasno holda o'ziga kerakli kelishik qo'shimchalarini talab qiladi. Garchi biz ularni o'zbek tiliga tarjima qilayoqganımızda ba'zi noqulayliklarga duch kelsakda, ularni qaysi

kelishik qo'shimchasi o'rnida qo'llanilayotgan bo'lsa, o'sha kelishik qo'shimchasi tarzida tarjima qilamiz.

버스를 탄다 - bu jumla aslida 버스에 탄다 tarzida bo'lishi kerak edi. Lekin "타다" ya'ni "minmoq" fe'li o'ziga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi 에 ni emas, tushum kelishigi qo'shimchasi -를 ni qabul qiladi. Agar biz suhbatdoshimizga "버스에 탔어요" deb aytsak, qo'pol xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Demak, koreys tilida kelishik qo'shimchalari har doim ham bir-biri bilan ma'no ko'chish hodisasi bo'la olmas ekan. Aksincha, yuqorida biz kelishik qo'shimcha-larining bir-birining o'rnida almashinib kelishini kuzatdik. Bundan tashqari koreys tilida boshqa qo'shimchalar xususan yordamchi qo'shimcha (보조사) lardan biri 은/는 qo'shimchasing kelishik qo'shimchalari o'rnida qo'llanilishini kuzatishimiz ham mumkin. Yordamchi qo'shimcha 은/는 kelishik qo'shimchalari o'rnida kelgan jummalarni biz o'zbek tiliga tarjima qilganimizda, 은/는 qaysi kelishik qo'shimchasi o'rnida kelgan bo'lsa, xuddi o'sha kelishik qo'shimchasing ma'nosи saqlangan holda tarjima qilinadi.

예: 저는 남동생이 있어요.

Bu gap o'zbek tiliga "Men singlim bor" deb emas, "Mening singlim bor" deb tarjima qilinadi. 저 so'ziga qo'shilib kelgan 는 qo'shimchasi qaratqich kelishigi (관형격조사) qo'shimchasi 의 o'rnida qo'llanilgan. Ya'ni jumla aslida quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak edi.

예: 저의 남동생이 있어요.

Navbatdag'i keltirmoqchi bo'lган misolimizda yordamchi qo'shimcha 은/는 chiqish kelishigi (처격조사) qo'shimchasi에서 o'rnida kelganini kuzatishimiz mumkin.

예: 서울은 정말 차가 많지요?

Bu gap o'zbek tiliga "Seulda chindan ham mashina ko'p-a?" tarzida tarjima qilinadi. Lekin koreys tilida quyidagi holat ko'proq uchraydi.

예: 서울에서 정말 차가 많지요?

Yordamchi qo'shimcha 은/는 kelishik qo'shimchalaridan biri qaratqich kelishigi qo'shimchasi 의 o'rnida kelishi ham mumkin.

예: 동생은 키가 작습니다.

Ukamning bo'yi kalta.

Ko'rib turganimizdek, bu jumla tarjimasida 은 qo'shimchasi qaratqich kelishigi qo'shimchasi 의 tarzida shakl olyapti.

"Ukamning bo'yi kalta." ushbu jumlaning koreys tilidagi haqiqiy muqobil variant esa quyidagicha bo'ladi. "동생의 키가 작습니다."

"소라는 오빠가 없어요." Bu gapda ham -는 qo'shimchasi qaratqich kelishigi

qo'shimchasi 의 o'rnida qo'llanilmoqda. “소리의 오빠가 없어요” jumlasida qaratqich kelishigi qo'shimchasi 의 o'z o'rnida qo'llanilmoqda. Bu gapning tarjimasi quyidagicha bo'ladi. “Soraning akasi yo'q.”

Endi biz yordamchi qo'shimcha 은는 ning bosh kelishik (주격조사) qo'shimchaları 이/가 o'rnida kelishini ko'rib chiqamiz.

예: 오늘은 몇 일입니까?

Bugun nechanchi sana?

Bu jumlani quyidagi holatda ko'rishimiz ham mumkin.

예: 오늘은 몇 일입니까?

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Keling, ulardan ayrimlarini har ikkala holatda ham ko'rib chiqamiz.

예: 제 생일은 10 월 7 일입니다.

제 생일이 10 월 7 일입니다.

Mening tug'ilgan kunim 7-oktabr.

철수가 아침 일찍 학교에 갑니다.

철수는 아침 일찍 학교에 갑니다.

Cholsu ertalab barvaqt mакtabga boradi.

엘메나 씨는 학생입니다.

엘메나 씨가 학생입니다.

Yelena o'quvchi.

Xulosa qilinganda, kelishik qo'shimchaları o'zaro o'rin almashinib kelib, yordamchi qo'shimchalarıning kelishi gapdagi eganing yanada aniqroq ifodalanishiga xizmat qiladi. Bu kabi jumlalarni har ikkala holatda qo'llasak ham xato hisoblanmaydi. Aksincha, nutqimizni takroriyliklardan saqlaydi. Bunday xususiyatlarning borligi esa, tillar grammatikasining qanchalik boyligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov N, Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi, 1995
2. Ne'matov H, Sayfullayeva R, Qurbanova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari, 1999
3. Sh.Safarov "Semantika" Toshkent 2013 12-bet
4. Eshimova. Sh. K Samarcand- Koreys tili kelishiklar tizimi 2019.12-b
5. Seungho. (2003). Lexical semantic Structures and argument alternations of movement verbs in Korean.
6. Трофименко О. А. Корейский язык. Справочник по грамматике. — М.: Живой язык, 2015. — С. 219.
7. 한국어 의미론" 박철우 모바일교보문고 2023

8. 임지현 '중세한국어 접미사' 한국 연구 /275~305쪽 2022.2.
9. 남승호 한국어 이동 동사의 의미구조와 논항교체- 서울대학교 Nam,
10이기문 새국어사전 서울 2004. -2150 b. 새한노사전 서울:
11. 한국외국어대학교출판부 2009. 1312 b.

Internet saytlari

1. <https://encykorea.aks.ac.kr/제2 기 역사적 의미론>
2. <https://encykorea.aks.ac.kr/제3 기 기술적 의미론>